

STABLECOINLARNING FUQAROLIK HUQUQLARI OBYEKTлари TIZIMIDAGI O'RNI

Raximov Jaloliddin Xaitboy o'g'li

Tezkor qidiruv xizmati terrorizmga

qarshi kurashish bolinmasi tezkor vakili katta leytenant

e-mail: Jahimov1427@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20118214>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda raqamli valyuta tushunchasining fuqarolik-huquqiy mohiyati hamda uning tarkibiy elementlari sifatida kriptovalyutalar, stablecoinlar va markaziy banklarning raqamli valyutalarining huquqiy tabiati kompleks tahlil qilinadi. Ishda raqamli aktivlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda mavjud normativ-huquqiy bazaning holati, shuningdek, yagona konseptual yondashuvning yo'qligi natijasida yuzaga kelayotgan huquqiy noaniqliklar ochib beriladi. Tadqiqotda raqamli obyektlarning nomoddiy xususiyati, ularning mulkiy qiymatga egaligi, muomalada ishtirok etish qobiliyati hamda fuqarolik huquqi obyektlari sifatida tasniflanish imkoniyati asoslab beriladi. Xususan, stablecoinlarning pulga xos funksiyalarni bajarishi bilan birga, an'anaviy qonuniy to'lov vositasi maqomiga ega emasligi ularning fuqarolik-huquqiy maqomini aniqlashda muhim nazariy va amaliy muammolarni yuzaga keltirishi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: virtual aktivlar, obektlar, elektron va raqamli to'lov vositalari, raqamli valyuta.

Raqamli valyuta turli sohalarda, jumladan huquq sohasida ham mutlaqo yangi hodisa emas. O'zbekiston Respublikasida virtual aktivlar to'g'risida maxsus amaldagi qonun hozircha mavjud bo'lmaganiga qaramay, raqamli buyumlar va pullarga oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan normativ-huquqiy hujjatlar mavjud¹.

Xususan, kriptoaktivlar aylanmasi, raqamli texnologiyalar, hamda elektron va raqamli to'lov vositalari bilan bog'liq munosabatlar maxsus qonunlar orqali tartibga solinmoqda. Shu bilan birga, raqamli obyektlarning xilma-xilligi ularning ayrim turlari uchun umumiy belgilar va funksiyalarni ifodalovchi alohida huquqiy kategoriya ajratib ko'rsatish zaruratini yuzaga keltirmoqda².

Bunday umumlashtiruvchi kategoriyaning yo'qligi huquqiy noaniqlikni keltirib chiqaradi. Natijada huquqshunoslar raqamli shaklda bir xil to'lov funksiyasini bajaruvchi obyektlar uchun yagona konseptual asos mavjud bo'lmagan holda, alohida huquqiy rejimlar bilan ishlashga majbur bo'lmoqdalar. Shu sababli "raqamli valyuta" kategoriyasini doktrinal jihatdan shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, u huquqiy tartibga solishni tizimlashtirishga xizmat qiladi hamda kelgusida qonun chiqaruvchi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda qo'llanishi mumkin³.

"Raqamli valyuta" tushunchasi huquqiy jihatdan turlicha bo'lgan aktivlarni qamrab oladi, jumladan: kriptovalyutalar, stablecoinlar va markaziy banklarning raqamli valyutalari⁴. Ushbu obyektlarning huquqiy tabiati o'rtasida yaqqol namoyon bo'ladigan farqlar mavjud bo'lib,

¹ <https://lex.uz/docs/-3806053>,

² Cherviaikov, M.O. Digital Currency in the System of Civil Law Objects, Червяков М. О., 2025

³ Cherviaikov, M.O. Digital Currency in the System of Civil Law Objects, Червяков М. О., 2025

⁴ <https://www.worldbank.org/ext/en/home>

kriptovalyutalar va steyblkoinlar asosan xususiy va markazlashmagan virtual aktivlar hisoblanadi. Markaziy banklarning raqamli valyutalari esa davlat tomonidan chiqariladigan, markazlashgan, milliy pul birligining raqamli shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, mazkur obyektlarning barchasi nomoddiy (raqamli) obyektlar bo'lib, taqsimlangan reyestr texnologiyasi, jumladan blokcheyn yoki unga yaqin texnologik yechimlar asosida faoliyat yuritadi. Ular qiymatni saqlash, to'lovlarni amalga oshirish hamda ayrim hollarda investitsiya vositasi sifatida qo'llanilishi bilan tavsiflanadi.

Х.Раҳмонкулов Шахсинг муайян эҳтиёжларини қондирувчи неъматларга йўналтирилган фуқаролик ҳуқуқи субъектларининг ҳаракатлари фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларнинг объекти деб ҳисобланганини та'kidlagan.

Uning fikricha Nomoddiy ne'matlarга бўлган субъектив ҳуқуқ моддий характерга эга бўлмаслиги билан бир қаторда, у киши шахси билан бевосита боғлиқ, бегоналаштирилмайдиган, яъни бошқа шахсга ўтказилмайдиган ҳуқуқдан иборат. Бу yondashuv raqamli aktivlarga ham tatbiq etilganda, ularning huquqiy mohiyati subyektiv huquqlar orqali ifodalanishi mumkinligi anglashiladi.

Shu bilan birga, nomoddiy ne'matlarga bo'lgan subyektiv huquqlar moddiy xarakterga ega emasligi, shaxs bilan bevosita bog'liqligi hamda begonalashtirilmasligi bilan ajralib turadi. Bu holat raqamli aktivlarning huquqiy tabiatini tushunishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. stablecoin va unga o'xshash raqamli aktivlar fuqarolik huquqida alohida tizimli yondashuvni talab qiluvchi, nomoddiy, raqamli va ko'p funksiyali obyektlar sifatida shakllanmoqda hamda ularning huquqiy maqomini belgilashda an'anaviy fuqarolik-huquqiy konstruktsiyalarni zamonaviy raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda qayta talqin qilish zarurligi ko'rsatadi.

M.O. Cherviakovning ta'kidlashicha kriptovalyutalar va steyblkoinlar (virtual aktivlar sifatida), shuningdek markaziy banklarning raqamli valyutalari huquqiy tabiatidagi farqlarga qaramay, fuqarolik-huquqiy munosabatlar obyekti sifatida yagona "raqamli valyuta" kategoriyasi doirasida birgalikda ko'rib chiqilishi lozim, Shu bilan birga raqamli obyektlarni tasniflashda yangi yondashuvni taklif etishida namoyon bo'ladi, ya'ni ularni faqat huquqiy maqomiga ko'ra emas, balki funksional belgilariga ko'ra tasniflash. Ushbu yondashuv asosida kriptovalyutalar, steyblkoinlar va markaziy banklarning raqamli valyutalari umumiy to'lov funksiyasi hamda fuqarolik muomalasidagi roli bilan birlashtirilib, oraliq kategoriya "raqamli valyuta" sifatida ajratib ko'rsatiladi⁵.

Lohoida.V.M. o'z dissertatsiyasida "raqamli valyuta" atamasini, **elektron pul va kriptovalyutalarni o'z ichiga oluvchi umumiy tushuncha** sifatida belgilaydi⁶.

Ukraina Fuqarolik kodeksining 179¹-moddasiga muvofiq (keyingi o'rinlarda — FK Ukraina), raqamli ashyo deb faqat raqamli muhitda yaratiladigan va mavjud bo'ladigan hamda mulkiy qiymatga ega bo'lgan ne'matga aytiladi; raqamli ashyolarga virtual aktivlar, raqamli kontent va mazkur moddaning birinchi qismi qoidalari qo'llaniladigan boshqa ne'matlar kirishi belgilangan. Shu bilan birga, agar qonun yoki raqamli ashyoning mohiyatidan boshqacha holat

⁵Cherviakov, M.O. Digital Currency in the System of Civil Law Objects, Червяков М. О., 2025

⁶ Lohoida, V.M. (2022). Cryptocurrencies as an object of civil rights: comparative legal analysis. Ph.D. Thesis. Uzhhorod: Uzhhorod National University

kelib chiqmasa, raqamli ashyolarga nisbatan ashyolar haqidagi fuqarolik-huquqiy qoidalar qo'llanilishi ko'rsatilgan⁷.

Fransiya raqamli aktivlarni **“biens meubles incorporels” (moddiy bo'lmagan ko'char mulk) sifatida e'tirof etadi**⁸.

Singapurda sudlar kriptovalyutani mulk deb tan olgan. Ularga nisbatan ishonchli boshqaruv, undiruv, shartnomaviy munosabatlar qo'llaniladi⁹.

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug'iga binoan tasdiqlangan Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq kripto-aktiv — ma'lumotlarning taqsimlangan reyestrtdagi raqamli yozuvlar yig'indisi bo'lgan, qiymati va egasiga ega mulkiy huquq deb belgilab qo'yilgan. Nizomda kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari (bundan buyon matnda xizmatlar provayderlari deb yuritiladi) — jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan ularning nomidan kripto-aktivlarni sotib olish, sotish, ayirboshlash, saqlash, chiqarish, joylashtirish va boshqarish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar litsenziya asosida shug'ullanishi belgilangan.

Hozirda mamlakatimiz hududida kripto-aktivlar to'lov vositasi hisoblanmaydi va mulk (tovarlar), ishlar yoki xizmatlarga ayirboshlash obyekti bo'la olmasligi mumkin, biroq taqiq ham mavjud emas.

Shunday qilib, virtual aktivlar bo'yicha milliy qonunchilik normalaridan kelib chiqadiki, kriptovalyutalar va stejblkoinlar mulk hisoblanadi.

Maydanik.R.A. raqamli ashyolar quyidagi hollarda mulk sifatida qaralishi mumkinligini ta'kidlaydi: agar ular mulkiy qiymatga ega bo'lsa, boshqa shaxsga begonalashtirilishi yoki boshqa usul bilan o'tishi mumkin bo'lsa, shuningdek, kreditorlar tomonidan ularga nisbatan undiruv qaratilishi mumkinligini ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy manba hisoblanib, unda mulk, majburiyat, shartnoma erkinligi hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq qoidalar mustahkamlangan. FKning 81-moddasiya muvofiq Fuqarolik huquqlari obyektlarining turlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kirishi belgilangan. Shu bilan birga Fuqarolik kodeksida fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkinligi belgilangan.

Fuqarolik kodeksi 81-moddasi orqali fuqarolik huquqlari obyektlari toifalari aniq belgilangan: Ushbu moddaga ko'ra, fuqarolik huquqlari obyektlari doirasi ancha keng bo'lib,

⁷ Цивільний кодекс України від 16.01.2003 р. № 435-IV. URL: <https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/435-15#Text> (дата звернення: 18.07.2025).

⁸ https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070719/

⁹ General Division of the High Court — Originating Claim No 320 of 2022 (Summonses Nos 910 and 1526 of 2023) Philip Jeyaretnam J5 May, 24 July 2023

moddiy hamda nomoddiy ne'matlar bir qatorda mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda intellektual faoliyat natijalarini ham o'z ichiga oladi. Stablecoinlar esa blokcheyn texnologiyasi orqali shakllangan raqamli aktivlar bo'lib, ularning qiymati odatda milliy valuta yoki boshqa barqaror aktivga bog'langan. Stablecoinlar pulga qaraganda barqarorroq qiymat saqlashga mo'ljallangan kriptoaktivlar bo'lib, ularning asosiy vazifasi to'lov funksiyasini amalga oshirishdir.

Fuqarolik kodeksi 81-moddasini stablecoinlarga nisbatan tahlil qilganda bir necha muhim jihatlar paydo bo'ladi. Hususan, fuqarolik kodeksi bo'yicha pul fuqarolik huquqlari obyekti sifatida belgilangan. Stablecoinlar qiymati fiat valyutaga bog'langan raqamli aktivlar bo'lsa-da, ular an'anaviy qonuniy to'lov vositasi maqomiga ega emas. Biroq, ularning pulga o'xshash qiymat saqlash va to'lov funktsiyalarini bajarish imkoniyati stablecoinlarni fuqarolik huquqi obyektlari tizimida mulkiy huquqlar hamda qiymatli aktivlar qatorida qarashga asos yaratishi mumkin. Fuqarolik kodeksi moddasida mol-mulk hamda mulkiy huquqlar mulkiy huquqlar obyektlari sifatida qabul qilinadi. Stablecoinlar raqamli shaklda bo'lishiga qaramay, ular bilan bog'liq huquqlar real iqtisodiy qiymatni ifodalaydi va **egalik hamda tasarruf huquqlari mavjud** bo'ladi. Bu ularni fuqarolik huquqi obyektlarining mulkiy huquqlar yoki boshqa aktivlar qatoriga kiritishni asoslaydi. Stablecoinlar nomoddiy raqamli shaklda bo'lib, ular texnik obyekt sifatida jismoniy shaklga ega emas. Shunga qaramay, ularning iqtisodiy qiymati, egalik huquqi va shartnomaviy munosabatlarda ishtirok etishlari mumkin.

A.Yakubov tomonidan fuqarolik huquqining zamonaviy doktrinasida fuqarolik huquqlarining yangi obyekti sifatida aks ettirilgan raqamli huquqlar o'z egasiga har qanday narsani berishni, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishga doir intellektual faoliyat natijalariga mutlaq huquqlarni yoki ularning litsenziyasini talab qilish huquqini beruvchi foydali tokenlar bilan bir xil tushuncha sifatida baholanadi.

Fuqarolik huquqlari obyektlari tizimida raqamli huquqlar qonun chiqaruvchi tomonidan mulkiy huquqlarga, ya'ni Fuqarolik kodeksida "boshqa mulk" toifasiga kiritish, fuqarolik qonunchiligiga "Raqamli huquqlar bu – mazmuni va amalga oshirish shartlari qonun hujjatlariga muvofiq axborot tizimi tomonidan belgilangan mezonlarga javob beradigan huquqlar majmuasidir" degan ta'rifni kiritish taklif qilinadi. "Qonun hujjatlari bilan belgilangan mezonlarga javob beradigan axborot tizimi" kabi tushuncha o'z ichiga nafaqat raqamli huquqlarni, balki virtual mulk huquqi bilan bog'liq munosabatlarni ham qamrab olishi zarur, deb hisoblagan.

Raqamli obyekt tushunchasini ham tushunish muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, virtual mulk "raqamli obyekt (digital object)", ya'ni raqamli shaklda taqdim etilgan obyektlar toifasiga kiritilishi kerak.

Har qanday virtual mulk raqamli obyekt bo'lib hisoblanadi, lekin har qanday raqamli obyekt virtual mulk bo'la olmaydi. Bunga sabab virtual mulkning boshqa raqamli obyektlardan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarining mavjudligi ta'kidlangan.

Fuqarolik huquqlari obyektlarining boshqa shaxslarga o'tishi.

Fuqarolik kodeksi 82-modda bo'yicha obyektlar erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik yo'li bilan o'tishi mumkin, agar ular muomaladan chiqarilmagan bo'lsa. Stablecoinlar blokcheyn tarmog'ida mintaqaviy cheklovlarsiz ko'chirilishi (o'tkazilishi) mumkin bo'lib, bu ularni fuqarolik huquqlari obyektlari sifatida tan olish mumkinligini ko'rsatadi.